

O'ZBEK TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Tashmatova Oynaxol Qarshiyevna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 34-maktab Boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Xamrayeva Manzura Maxamadjonovna

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani 34-maktab ona tili va
adabiyoti fani òqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi - xalqimizning milliy mustaqillikga erishish yo'llidagi muhim qadamlardan biri bo'lganligi haqida, ma'naviyatning ko'zgusi bo'lgan ona tiliga bo'lgan munosabat shaxsning ma'naviyatga bo'lgan munosabatini ham belgilanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, xalq, yuksalish, bosqich, taraqqiyot, o'zgarishlar, mustaqillik, munosabat.

Har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar juda katta katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Bundan o'zbek xalqi ham mustasno emas. Markaziy Osiyo hududlarida azaldan yashab kelgan o'g'uz, qipchoq, uyg'ur, nayman, uyshin, barlos, yuz, qirq, ming kabi ko'plab qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida muhim o'rinn tutgan. Shunday qilib juda ko'p mashaqqatlardan so'ng O'zbekiston o'zining o'zbek tiliga ega bo'ldi. Mana shundan so'ng yurtimizda bir qator o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Avvalambor, Yurtimizda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng, davlat tilini izchil joriy etish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishni ta'minlash maqsadida 1995-yil 21-dekabrda "Yangi tahrirdagi Davlat tili haqida" qonun qabul qilindi. Shuningdek, o'zbek yozuvining lotin alifbosidagi (1929-1940-yillar) ijobiylari tajribasidan kelib chiqib va jahon kommunikatsiyasiga kirishni jadallashtirish maqsadida 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Mazkur qonun bilan mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan, 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi amalda bo'ldi. 1995-yil 6-mayda unga o'zgartirish kiritilib, 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat o'zbek alifbosi joriy etildi. Xalq ta'lifi vazirligi tomonidan umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 1-2-3-sinflari uchun lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida o'quv dastur, darslik, metodik materiallar nashrga tayyorlandi. 1996-1997-o'quv yilidan boshlab, ta'lim o'zbek tilida olib borilayotgan barcha 1-sinf o'quvchilari

yangi alifboda o'qishni boshladi va bosqichma-bosqich 2005-yilgacha ular yangi o'zbek alifbosida o'quv adabiyotlar majmuasi bilan ta'minlandi.



O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi - xalqimizning milliy mustaqillikga erishish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib, ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Shuningdek, davlat tilining boyitilishi va takomillashtirilishi taminlabgina qolmay, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi va mamlakatimizga xorijdan kirib kelayotgan barcha millat va elatlarning tillarini hurmat qilinishini taminladi. Chegara bojxona postlari orqali yurtimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari o'zbek tilida yoki boshqa jaxon tillarida yo'lovchi bojxona deklaratsiyalarini to'ldirishlari va muloqotda bo'lishlari mumkin bo'ldi. Bugun chegara bojxona postlarida fuqarolarga ko'rsatmalar, ma'lumotlar, xabarlar va yo'lovchi bojxona deklaratsiyalari o'zbek, rus va ingлиз tillarida yetkazilishi yo'lga qo'yilgan. Bu ham boshqa davlatlardan tashrif buyuruvchilarga qulaylik va ularning tillariga nisbatan hurmatni bildiradi.

Ma'lumki, "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtaidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir". Shunday ekan, ma'naviyatning ko'zgusi bo'lgan ona tiliga bo'lgan munosabat shaxsnинг ma'naviyatga bo'lgan munosabatini ham belgilaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek tili O'zbekistonda davlat tilidir. Bu tilda so'zlashuvchilarning umumiyligi soni 35 milliondan ortiq bo'lib, ularning asosiy qismini O'zbekistonda va unga chegaradosh bo'lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan o'zbek tilida so'zlashuvchi va o'zini o'zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi. O'zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning

shakllanishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta. Buni uning ushbu misralarida ham bilish mumkin:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Ha, o'zbek tili rivoji yo'lida bugungi kunda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ham Hazrat Navoiyning til rivojidagi amallarining mantiqiy davomidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan millatlar tashkilotining 72-sessiyasida o'zbek tilida ma'ruza qilgani ham buning yaqqol isbotidir.

Bugungi kunda ham barcha darsliklar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida chop etilmoqda. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Shuningdek, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasi "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi. Xalq ta'limi tizimidagi umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "O'zbek tilim – iftixorim" tanlovi joriy etildi. Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Boisi milliy tilda xalqning ma'naviy-madaniy hayoti, ajdodlarning dunyoqarash va tafakkuri, boy ilmiy va ijodiy merosi mujassam bo'ladi. Dunyodagi barcha ezguliklar ona allasi orqali farzand ong-u shuuriga ona tilida singadi. Istiqlol, milliy g'urur kabi tushunchalar ham ona tili bilan chambarchas bog'langan. Shu sababdan o'zligini saqlab qolishga intilgan har bir xalq, millat ona tilini asrab-avaylashni va avlodlarga uni rivojlantirgan holda yetkazishni o'zining muqaddas burchi deb biladi.

Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkarligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Muxtorov., U.Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. U.Tursunov., B.O'rinoev., A.Aliev. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1982.
3. A.Aliev., Q.Sadiqov. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1992.